

Xitoy va O'zbekiston: fan va texnologiyalar hamda muhandislik sohasida muhim qadam

2025-yil 3-4-yanvar kunlari Chunsin universitetida Xitoy-O'zbekiston ilmiy-texnologik hamkorligiga bag'ishlangan simpozium bo'lib o'tdi.

Ushbu simpozium Xitoy va O'zbekistondan kelgan ekspertlarni birlashtirdi. Simpozium davomida Chunsin universiteti prezidenti, professor Van Shusin va O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti S. Mirzayev o'rtasida muzokaralar bo'lib o'tdi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bino va inshootlarning zilzilabardoshligini oshirish hamda xavfni monitoring qilish faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-161-son qarori doirasida Chunsin universitetida hozirda O'zbekistonning 14 ta ilmiy muassasalari bilan hamkorlikda "Shahar zilzilabardoshligi" bo'yicha Xitoy-O'zbekiston ilmiy-texnologik hamkorlik va texnik trening lohiyasini amalga oshirilmoqda. Loyiha rejasi asosida 3-yanvar kuni uni yakunlash marosimi ilmiy simpozium shaklida o'tkazildi. Tadbir yakunida O'zbekistonning 14 ta muassasalaridan trening loyihasida ishtirok etgan 35 nafar yosh olimlarga sertifikatlar topshirildi va Xitoy-O'zbekiston shahar tadqiqotlari qo'shma laboratoriyasida ishtirok etish uchun ariza topshirgan o'n beshta tashkilotga esdalik belgilari taqdim etildi.



Simpozium Xitoy va O'zbekiston o'rtasida fan va texnologiyalar va muxandistik sohasidagi hamkorlikni mustahkamlashda muhim qadam bo'ldi.

Ma'lumot o'rnida: *Chunsin universiteti (Chongqing University) — Xitoyning yetakchi oliy o'quv yurtlaridan biri hisoblanadi. U 1929-yilda tashkil etilgan bo'lib, Xitoyning elita ta'lim muassasalarini rivojlantirishga qaratilgan "211" va "985" loyihalariga kiritilgan universitetlardan biri sanaladi. Universitet Xitoyning janubi-sharqida joylashgan eng yirik megapolislardan biri — Chunsin shahrida joylashgan.*